

AYOL – QIZLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI HUQUQLARI VA O'RNI

Umurzoqova Rushana Xurshid qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy huquq fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Hozirgi kunda yurtimizda ayol-qizlarning turli xil sohalarda va tarmoqlarda ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan turli qonun va hujjatlar ishlab chiqilmoqda hamda ularning qobiliyati, imkoniyatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilib, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, oila institutini takomillashtirish maqsadida bir qator huquqiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ayollarning huquqi inson huquqlarining bir tarmog'i sifatida shakllanib qoldi desak, xato bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: ayollar, inson huquqlari, ayollar huquqlari, oila institute, kamsitish, zo'ravonlik, gender tenglik.

KIRISH

Rivojlangan dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro jamiyatda muhim va munosib o'ringa ega bo'lgan O'zbekistonning jamiyat va davlat sifatidagi taraqqiyoti davomida xotin-qizlarning o'rni, ularning huquqiy va siyosiy madaniyati muhim kasb etmoqda. Bugungi rivojlanish, globallashuv bosqichida har qanday sharoitga nisbatan yangi, yosh avlodning jamiyatga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda xotin-qizlarimizning roli juda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham hozirgi kunlarda olib borilayotgan islohotlar, yuksalishlarning asosiy mavzusi ham ayol-qizlarimizning yangi g'oyalari, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularning rivojlanishiga imkon yaratib berish, jamiyatimizdagi ijtimoy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishini ta'minlash va ayol-qizlarimizning huquqlarini yanada mustahkamlshdan iborat bo'li bormoqda. Sababi, ayolga hurmat va ehtirom ko'rsatish, yuksak insoniylik belgilaridir, deya hisoblayman. Ayollar huquqlari deganda, xotin-qizlarga nisabatan bo'layotgan zo'ravonlik, ayollarning aynan ayol bo'lganligi tufayli ham ba'zi bir huquqlarda kamsitilayotganligi uchun inson huquqlarining alohida huquq tarmog'i tariqasida paydo bo'lismiga olib keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yurtimizda gender tenglikni ta'minlash, ayol-qizlarning jamiyat hayotidagi ijtimoy-siyosiy rolini oshirish, aholining ayollar huquqlari to'g'risidagi savodxonligini oshirish, huquqni qo'llash amaliyotida ularga amal qilishini ta'minlash uchun mas'ul mansabdor shaxslarni belgilangan huquqiy me'yorlar asosida o'qitish kabi muhim bosqichlardan iborat. Yurtimizda ayollarning qadrini rivojlanirish asosida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar muhim ahamiyatga egadir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" deya muhrlanganligi ayol-qizlarning davlat va jamiyat

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

hayotidagi rolini oshirish, yurtimizda gender tenglikni ta'minlash borasidagi islohotlar uchun huquqiy mezon bo'lib ravnaq topmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ayol-qizlarning qonuniy, huquqiy manfaatlarini ta'minlash rivojlanmoqda, shu tufayli mamlakatimiz xotin-qizlarni har qanday tahqirlash, kamsitishdan himoya qiladigan barcha muhim hujjalarga a'zo bo'lmoqda. Xususan, ushbu hujjalarni qatoriga "Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida"gi Nyu-york konvensiyasi, "Onalikni muhofaza qilish to'g'risida"gi Jeneva konvensiyasi, "Xotin-qizlarning huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Nyu-York konvensiyalari, "Birlashgan Millatlar Tashkilotining transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini to'ldiruvchi odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda bunga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi" Bayonnomasi kabilarni misol qilib ayta olamiz. Shuningdek, ushbu xalqaro hujjalarni bilan bir qatorda mamlakatimizda "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash tog'risida"gi, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun va hujjalarni ham amalga kiritildi.

MUHOKAMA

Amalga oshirilgan islohotlar so'nggi davrda o'z natijasini berdi desak, xato bo'lmaydi, milliy parlamentimizda ayol-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan darajagacha yetib, 32foizni tashkil qildi va parlamentimiz ayol-qizlar soni bo'yicha 190ta parlament orasida 37-o'ringa yuqoriladi, ularning tadbirdorlik sohasidagi foizi 35 foizga, fermerlik sohasida esa 10 foizga, oliy ta'limdi esa 46 foizdan yuqori natijaga chiqdi. 1,5mingga yaqin mutaxassis xotin-qiz davlat boshqaruvida rahbarlik lavozimida faoliyat yuritib, ayollarning ulushi ushbu tizimda 33 foizni tashkil qilmoqda. "Siyosatdagi ayollar" tahliliga ko'ra, 2019 yilgi saylov natijalariga binoan, Senat – parlamentning yuqori palatasida 2020-yilda ayollar 24,7% o'rinni egallab, oldingi natijaga nisbatan o'z vakolatlarini 7,7 foiz ulushga yuqoriladi. 2019yilgi Qonunchilik palatasidagi saylovdda ayollar 32% ulushga ega bo'ldi, bu esa 2 baravarga ko'rsatkichning oshganini angalatadi. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tashkil qilingani munosabati bilan barcha hudud rahbarlariga yangi o'rinnbosarlar – viloyat oila va xotin-qizlar boshqarma boshliqlari tayinlandi. Buyuk Britaniyada nashr qilingan "Pulse UK" gazetasi o'z sahifasida 2014-yilda O'zbekiston Respublikasida ayollar uchun 468ming 175ta yangi ish o'rnlari yaratilganini e'lon qildi. 2021-yildan boshlab, ayollarni jamiyat hayotiga jal qilish, ularning bandligini qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning muammolarini hal qilish, aniqlash maqsadida yurtimizda "Ayollar daftari" tashkil etildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtarda yurtimizda ayollar huquqlarini mustahkamlash borasida bir qancha ishlar olib borilmoqda. Xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridagi faolligini oshirish, saylovlarda ularning

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

faol ishtirok etishini ta'minlash , ularni g'oya va tashabuslar bilan chiqishida ko'mak berish, lider ayollarning qobiliyatlarini amalga oshirish borasida islohotlar olib borilmoqda.

